

XITOIY DAVLATI BOJXONA RASMIYLASHTIRUVIDA SUN'IY INTELLEKTNING  
TUTGAN O'RNI

*Anvarov Bahromjon Akmaljon o'g'li*

*Bojxona instituti, Bojxona ishi yo'nalishi, 2-kurs kursanti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xitoy davlati bojxona rasmiylashtiruvda sun'iy intellektning tutgan o'rni haqida to'liq ma'lumot berilgan. Bugungi kunda Xitoy nafaqat bozorning asosiy ishtirokchisi, balki savdo sohasida ham jahon yetakchisi hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasidagi ijobiy tendentsiyalar zahirida nafaqat miqdoriy ustunlik, balki sifat standartlari ham yotadi. Islohotlar davrida Xitoy tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishi tashqi savdo bo'ldi.

**Key words:** sun'iy intellekt, zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt, hardware chiplari, sun'iy intellekt algoritmlari.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida global yetakchi bo'lishni maqsad qilgan Xitoy rahbarlari uchun eng muhim ustuvor vazifaga aylandi. Shu munosabat bilan hukumat 2017 yilda o'zining sun'iy intellekt texnologiyalari borasidagi maqsadlari va asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi "Keyingi avlod sun'iy intellektni rivojlantirish rejasi" deb nomlangan milliy strategiyani qabul qildi. Mazkur strategiya doirasida Xitoy hukumati 2030 yilga kelib, fuqarolik va harbiy sohalarda sun'iy intellekt sanoatini 150 milliard AQSH dollaridan ziyod qiymatga olib chiqish va bu borada AQSHdan o'zib ketishni bosh maqsad qilib qo'ydi. Xitoy hukumatining sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy strategiyasi muhim bir mantiqqa asoslanadi: davlatning sohani rivojlantirishga qaratilgan yo'naltiruvchilik roli dinamik xususiy sektor yutuqlari bilan birgalikda mavjud ekanligi. AQSH hukumatiga xos erkin bozor yondashuvidan farqli o'laroq, Xitoy sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlardan tortib, texnologiyalar tijoratigacha uzaygan bosqichni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "mahalliy innovatsiyalar" siyosatini ilgari suradi. Hukumatning sun'iy intellektni rivojlantirish siyosati mazkur soha uchun muhim sanalgan to'rt element bilan chambarchas bog'liq: hardware chiplari, sun'iy intellekt algoritmlari uchun muhim bo'lgan ma'lumot, algoritmlar borasidagi fundamental tadqiqotlar va sun'iy intellekt tijoratini qo'llab-quvvatlovchi ekotizim.

Soha rivojida markaziy hukumat muhim rol o'ynasa-da, Xitoyda sun'iy intellektning tobora mavjlanishi ortida xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan yirik texnologik kompaniyalarning ham muhim roli bor. Albatta, bu kompaniyalar mamlakatda shakllanib ulgurgan katta miqdordagi ma'lumotlar bazasi va sun'iy intellekt uchun yangi bozorlar kashf qilish, ularni tijoratlashtirish borasida davlatning qo'llab-quvvatlovi kabi o'ziga xos imtiyozlarga ham ega. Xitoyning "Alibaba", "Baidu" va "Tencent" kabi gigant texnologik kompaniyalari o'ziyurar avtomobilga o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarish uchun muhim hisoblangan tasvir va ovozni tanib oluvchi sun'iy intellekt texnologiyalari borasida bir necha yildan beri izlanish olib boradi. Shuning uchun ham, 2018 yilda Xitoy hukumati Baidu, Alibaba, Tencent, iFlytek va SenseTime kabi texnologik kompaniyalarni rasmiy ravishda mamlakatning "sun'iy intellekt chempionlari" deb e'lon qildi. Bu imtiyoz, albatta, mazkur kompaniyalarga, agar ular hukumatning turli maqsadlariga xizmat qilishga rozi bo'lsa, xorijiy raqobatchilarga nisbatan me'yoriy muhitda moslashuvchanlik qobiliyatini taqdim qiladi.

Xo'sh, sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan Xitoyga nima naf? Oddiy tahlillar global iqtisodiy raqobatda ustunlikka erishish Xitoyning sun'iy intellektni rivojlantirishdagi asosiy maqsadi ekanini ko'rsatadi. Ammo, bu strategik masalaning asl mohiyati uning ortidagi siyosiy mantiqda namoyon boladi. Mazkur siyosiy mantiqni quyidagicha izohlash mumkin: sun'iy intellekt inqilobi harakatga keltiruvchi raqobatbardosh iqtisodiyot va davlat xavfsizligi – siyosiy rahbariyatga hokimiyatni uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi. Darhaqiqat, Xitoyning sun'iy intellekt texnologiyalari borasida ustunlikka erishish maqsadi

raqamli iqtisodiyot va innovatsion sanoat orqali iqtisodiy o'sishni oshirishga qaratilgan. Kuzatuvchilarning ta'kidlashicha, mamlakatda doimiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash ritorikasi va amaliyoti bugungi kunda Kommunist partiyaning eski Marksist mafkurasi o'rnini allaqachon egallab olgan. Bu ritorika bugun Kommunist partiyaga Xitoy ichki siyosiy barqarorligini saqlash uchun asosiy legitimlik manbaiga aylangan. Ammo vaziyat kunda-kunga o'zgarib boryapti. Siyosiy rahbarlar raqamli inqilob qarshisida turgan va geosiyosiy ziddiyatlar tobora ko'payib borayotgan yangi davrda texnologiyalar importiga qaramlik va arzon ish haqiga asoslangan ishlab chiqarish asosiga qurilgan Xitoy iqtisodiyoti uzoqqa bormasligini yaxshi anglashadi. Shu sababli ham Xitoy hukumati bir necha yil avval ishlab chiqarish bazasini yangilash va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish orqali "texnologiya mustaqilligiga" erishish uchun "Xitoyda ishlab chiqarilgan – 2025" sanoat siyosatini yo'lga qo'ydi. Sun'iy intellektni rivojlantirish hukumatning raqamli iqtisod inqilobi borasidagi yangi sanoat siyosatida muhim bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Xitoydan jami eksport 2020 yilda 2,59 trillion dollarni tashkil etdi. 2019-yilga nisbatan Xitoydan tovarlar yetkazib berish hajmining o'sishi sur'ati 3,68 foizni tashkil etdi. Tovarlarning eksporti 92 milliard dollarga oshdi (2019-yilda Xitoydan 2,49 trillion dollarlik mahsulot yetkazib berilgan). 2020 yilda Xitoydan tovarlarning asosiy eksport geografiyasi yo'nalishlari mamlakatlari AQSh 17,4 foiz ulushni tashkil etgani holda yirik eksport hamkori bo'lib qolmoqda (452 milliard AQSh dollari), Gonkong 10,5% ulushi bilan (272 milliard AQSh dollari), Yaponiya ulushi 5,5% (142 mlrd AQSh dollari), 4,39% (113 milliard AQSh dollari) ulushi bilan Vetnam, Koreya Respublikasi ulushi 4,34% (112 mlrd AQSh dollari), Germaniya 3,35% ulushi bilan (86 milliard AQSh dollari), Niderlandiya ulushi 3,04% (79 mlrd AQSh dollari), 2,8% ulushi bilan Buyuk Britaniya (72 mlrd. AQSh dollari), Hindiston ulushi 2,57% (66 milliard AQSh dollari), 2,32% (60 mlrd. AQSh dollari) ulushiga ega bo'lgan boshqa Osiyo mamlakatlari hisoblandi.

Xitoy eksportida 10 ta yirik savdo hamkorlarining ulushi (foizda) 2020 yilda Xitoyning eksport tarkibi quyidagi asosiy tovar guruhlari ifodalanadi: - Elektr texnika va jihozlar, ularning qismlari; ovoz yozish va qayta ishlab chiqarish uskunalari, televizion tasvirlar va ovoz yozish va takroran ko'rish va eshitish uchun uskunalari, ularning qismlari va aksessuarlari ulushi 26 foiz (698 mlrd. AQSh dollari); atom reaktorlari, qozonxonalar, uskunalari va mexanik qurilmalar; ularning qismlari ulushi 17,4 foiz (450 mlrd. AQSh dollari); - mebel; choyshablar, matraslar, divan tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash mebellar qo'shimchalari; lampalar va yoritish moslamalari ulushi 4,22 foiz (109 mlrd. AQSh dollari); -plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar ulushi 3,74 foiz (96 mlrd. AQSh dollari); - optik, fotografik, kinematografik, o'lchash, nazorat qilish, aniqlik, tibbiy yoki jarrohlik asboblari va apparatlari; ehtiyot qismlar va aksessuarlar - 3,13 foiz (81 mlrd. AQSh dollari); temir yo'l yoki tramvay harakat tarkibidan tashqari quruqlikdagi transport vositalari va ularning qismlari va aksessuarlari - 2,94 foiz (76 mlrd. AQSh dollari); tayyorlangan to'qimachilik mahsulotlari; to'plamlar; kiyim va to'qimachilik mahsulotlari; matolar - 2,91 foiz (75 mlrd. AQSh dollari); o'yinchoqlar, o'yinlar va sport anjomlari; ehtiyot qismlari va aksessuarlar ulushi 2,76 foiz (71 mlrd. AQSh dollari); qora metallurgiya (temir va po'lat) mahsulotlari - 2,74 foiz (71 milliard AQSh dollari); mashina va qo'lda to'qilgan trikotajlardan tashqari kiyim va kiyim -kechak aksessuarlari ulushi 2,4 foizni (62 milliard AQSh dollari) tashkil etgan va bu o'z navbatida har bir yilda muqobil o'sish sur'atlarini namoyon etib kelmoqda.

Eksport tarkibidan farqli ravishda 2020 yilda Xitoyning import tarkibi quyidagi asosiy tovar guruhlari bilan ifodalanadi: elektron mashinalari va uskunalari, ularning qismlari; ovoz yozish va qayta ishlab chiqarish uskunalari, televizion tasvirlar va ovoz yozish va takroran qayta ko'rish uchun uskunalari, ularning qismlari va aksessuarlari ulushi umumiy importga nisbatan 26 foizni (548 mlrd. AQSh dollari); mineral yoqilg'i, neft va ularni distillash mahsulotlari; bitumli moddalar; mineral mumlar 13 foizni (267 mlrd. AQSh dollari); rudalar, shlak, kul - 8,75 foiz (180 mlrd. AQSh dollari); atom reaktorlari, qozonxonalar, uskunalari va mexanik qurilmalar; ularning qismlari 8,68 foiz (178 mlrd. AQSh dollari); optik, fotografik, kinematografik, o'lchash, nazorat

qilish, tibbiy yoki jarrohlik asboblari va apparatlari; ehtiyot qismlar va aksessuarlar - 5.48 foiz (112 mlrd. AQSh dollari); temir yo'l yoki tramvay harakat tarkibidan tashqari yer usti transporti vositalari va ularning qismlari va aksessuarlari 3,59% (73 mlrd. AQSh dollari); plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar -3,46 foiz (71 mlrd. AQSh dollari); mis va undan tayyorlangan mahsulotlar - 2,36 foiz (48 mlrd. AQSh dollari); organik kimyoviy moddalar - 2,2 1 foiz (45 milliard AQSh dollari); yog' olunuvchi ekinlar va mevalar; boshqa urug'lar, mevalar va donalar; dorivor o'simliklar va texnik maqsadlar uchun o'simliklar; somon va yem-hashaklar ulushi 2,18 foizni (44 mlrd. AQSh dollari) tashkil etadi.

Kelgusi o'n yil mobaynida Xitoy tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish imkoniyatlarini tovarlar va xizmatlar savdosi, chet el kapitalini jalb qilish va chet elga sarmoya kiritish bo'yicha jahon yetakchilaridan biri sifatida o'z o'rnini saqlab qoladi degan baholash mumkin. Pekinning mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirishga qaratilgan yo'nalishi Xitoy eksportini kelgusida yanada kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Xorijiy ekspertlarning fikricha, kelgusi besh yillikda Xitoyning qayta ishlash sanoati mahsulotlarini eksport qilishdagi ulushi 22-23%ga yetishi mumkin, bu uning dunyo aholisidagi ulushidan (19%) va yalpi mahsulotdan (15%) yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Портяков В.Я. (2019) Политика внешнеэкономической открытости в Китайской Народной Республике: основные итоги и перспективы // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 12. № 1. С. 44-68.
2. <https://trendeconomy.ru/data/h2/China/TOTAL>
3. <https://www.statista.com/statistics/263661/export-of-goods-from-china/>
4. [https://1prime.ru/state\\_regulation/20211013/834949471.html](https://1prime.ru/state_regulation/20211013/834949471.html)
5. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.
6. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с. (р. 361).*
7. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In *Китайская лингвистика и синология (pp. 384-387).*
8. Omonov, Q. S., Rikhsieva, G. S., & Khalmurzaeva, N. T. (2021). THE ORIGIN OF AN OFFICIAL TURKIC STYLE AND ITS PLACE IN THE DEVELOPMENT OF A WRITTEN LITERARY LANGUAGE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 2(08), 45-49.
9. Mirzaxmedova, H. (2020). TERMS MADE FROM THE ORIGINAL IRANIAN VOCABULARY IN PERSIAN. *Philology Matters*, 2020(1), 137-145.
10. Омонов, К. Ш. (2019). Stereotype phrases and their place in providing formality to the text. *Молодой ученый*, (28), 259-261
11. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF ФШ &Ш" CHINESE DREAM" AND Ш ^ Ш Л Ш " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"-A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 7(01), 05-14.
12. Хашимова, С. (2019). On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage.